





Fan va innovatsiya



Quyidagi rasmda ilmiy tadqiqot ishlari 4 ta sektorga ajratib ko'rsatilgan:

Barchamizga ma'lumki, keyingi yillarda barcha sohalarida bo'lgani kabi ilm-fan va innovatsion tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, bu borada yaratilgan har qanday ilmiy natijalarni ishlab chiqarishni keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7- maydagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3698-sonli qarori mazkur yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlarga dasturiy amal bo'lib xizmat qilmoqda.





Namangan viloyat bo'yicha tayanch doktorantura institutlarida tahsil oluvchilar, qabul qilinganlar va bitiruvchilar soni (2019- yil, kishi)

Tahsil oluvchilar



52

Qabul qilinganlar




31

Bitiruvchilar



4

2019- yilda tayanch doktorantura institutlarida tahsil oluvchilar 52 nafarni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 13 taga (33,3 %) ko'paygan.



2018- yil 2019- yil

2019- yilda viloyatimizda tayanch doktoranturasi mavjud tashkilotlarning umumiy soni 3 tadan iborat bolib, ulardan 3 tasi esa, oliy ta'lim muassasalarini tashkil etadi. Ularda tahsil oluvchilar soni 52 nafar bo'lib, qabul qilinganlar 31 nafarni hamda bitiruvchilar esa, 2 nafarni tashkil etgan.








**Namangan viloyati bo'yicha doktoranturasi mavjud
tashkilotlar soni
(2019- yil, birlikda)**


Jami tashkilotlar 3 ta

Oliy ta'lim muassasalari 3 ta





Namangan viloyatida ish turlari bo'yicha tashkilotlar tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari hajmi (2019- yil, mlrd. so'm)*





*Bitta tashkilot bir nechta ish turini bajarganligi sabab, ish turlari hajmi yig'indisi jami yig'indiga teng emas.



Viloyatda fan sohalari bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlar, (2019- yil, mlrd.so'm)

Fan sohalari bo'yicha jami xarajatlar o'tgan yilga nisbatan 2,6 % ga oshib, 8,4 mlrd. so'm bo'lgan, shundan tabiiy va texnika fanlari 4,5 mlrd. so'mni, tibbiyot va qishloq xo'jaligi fanlari 1,4 mlrd. so'mni, ijtimoiy va gumanitar fanlar 2,5 mlrd. so'mni tashkil etgan.






**Viloyatda innovatsion mahsulotlar, ishlar,
xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va
tashkilotlar soni
(2019- yil, birlikda)**


Ma'lum bir innovatsiyani joriy qilgan korxonalar hisoblanadi. Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Innovatsion ishlarni bajargan tashkilotlar soni 184 tani tashkil etgan.





Namangan viloyati bo'yicha innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (2019- yil, birlikda)

2019- yilda 184 ta korxonalar va tashkilotlar o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan. Shundan 177 tasi kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatiga to'g'ri keladi.



Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi
Tel.: 69-227-84-94